13. Regehr, C., Glancy, D., and Pitts, A. “Interventions to Reduce Stress in University Students: A Review and Meta-Analysis.” *Journal of Affective Disorders*, vol. 148, no. 1, pp. 1–11, 2013.
14. Richardson, M., Abraham, C., and Bond, R. “Psychological Correlates of University Students’ Academic Performance: A Systematic Review and Meta-Analysis.” *Psychological Bulletin*, vol. 138, no. 2, pp. 353–387, 2012.
15. American College Health Association. *National College Health Assessment III: Reference Group Executive Summary, Spring 2024*. ACHA, 2024.

SHAXS VA UNING FAOLLIGIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY OMILLAR

Norbekova Barno Shavkatovna
O‘zMU Jizzax filiali Psixologiya kafedrasi ps.f.b.f.d.(PhD), dotsenti
Email: bnorbekova1983@gmail.com
Zayniddinova Muxlisa Odiljon qizi
O‘zMU Jizzax filiali talabasi
Email: zayniddinovamuxlis667@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada shaxs shakllanishi va uning ijtimoiy faolligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shaxs rivojlanishiga oid biogenetik, sotsiogenetik va psixogenetik yondashuvlar qiyosiy ko‘rib chiqilgan, makro- va mikromuhit omillari, ijtimoiylashuv institutlari (oila, mahalla, ta’lim muassasalari, mehnat jamoasi, ommaviy axborot vositalari, din), ijtimoiy nazorat shakllari (me’yor, sanksiya, rol) hamda faollikning motivatsion asoslari yoritilgan. Ijtimoiy omillar shaxsga mexanik tarzda emas, balki uning ehtiyojlari, ustanovkalari va o‘z-o‘zini anglashi orqali ta’sir etishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, faollik, ijtimoiy omil, ijtimoiylashuv, makromuhit, mikromuhit, oila, mahalla, ijtimoiy me’yor, ijtimoiy rol, motivatsiya, ijtimoiy ustanovka.

Inson shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxsga aylanadi. Shu bois shaxs muammosi psixologiyaning barcha tarmoqlarida o‘rganilsa-da, ijtimoiy psixologiya uni o‘ziga xos jihatdan — turli guruhlar bilan o‘zaro munosabatlarning natijasi va ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida tadqiq etadi. Umumiy psixologiya shaxsni psixik jarayonlarning egasi sifatida, sotsiologiya esa ijtimoiy munosabatlarning obyekti sifatida qarasa, ijtimoiy psixologiya guruhga mansub shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo‘ysunishi va muloqotdagi ta’sirlar uning ongida qanday aks etishini o‘rganadi [2, 18-b.].

Shaxsga xos eng muhim va umumiy xususiyat — uning faolligidir. Aynan faollik insonning jamiyat bilan doimiy aloqasini ta’minlaydi, o‘z-o‘zini anglash va xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shaxsning faolligi esa o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi: u hayot yo‘lini tanlashda, bu yo‘lni egallashda,

jamiyatdagi o‘rnini anglashda namoyon bo‘ladi va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Shu jihatdan, shaxs faolligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni aniqlash barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish kabi amaliy vazifalarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Faollik (lot. actus — harakat, activus — faol) shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini tushuntiruvchi kategoriya bo‘lib, u qo‘lga qalam olish kabi elementar harakatdan tortib ijodiy mavhum fikrlashgacha bo‘lgan murakkab jarayonlarni qamrab oladi. Fanda faollikning ikki turi farqlanadi: tashqi faollik — mushaklar harakati orqali bevosita kuzatiladigan xatti-harakatlar; ichki faollik — faoliyat jarayonidagi fiziologik o‘zgarishlar va ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir etuvchi psixik jarayonlar [2, 29-b.].

S.R. Kamalovaning ta’kidlashicha, bir qarashda faqat shaxsning individual ehtiyojlariga bog‘liqdek tuyuladigan bu faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, shaxsning jamiyat bilan murakkab o‘zaro munosabatlari natijasidir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb ataladi; faoliyat ong va tafakkur bilan boshqariladigan, ehtiyojlardan kelib chiqadigan, tashqi olamni va insonning o‘zini o‘zgartirishga qaratilgan faollik shaklidir. Insonga xos asosiy faoliyat turlari — muloqot, o‘yin, o‘qish va mehnat bo‘lib, ularning har biri ijtimoiy tajriba va me’yorlarni egallash vositasi hisoblanadi [2, 32-b.].

N. Ismoilova va D. Abdullayeva shaxs faolligi uning xulq-atvor motivlarida, ko‘rsatmalarida va ularni amalga oshirish usullarida namoyon bo‘lishini, inson esa ijtimoiy tajribani boshqalar bilan o‘zaro munosabatda o‘zlashtirib, o‘zining «ichki dunyosi»ni shakllantirishini qayd etadi. Demak, faollik shaxsning ham ijtimoiy ta’sirlarni qabul qiluvchi, ham jamiyatga ta’sir o‘tkazuvchi subyekt ekanligining ifodasidir.

Psixologiyada shaxs shakllanishini tushuntiruvchi biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik va boshqa nazariyalar mavjud. Biogenetik nazariyada biologik taraqqiyot bosh omil sifatida qabul qilinadi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar esa unga bog‘liq holda rivojlanadi, deb hisoblanadi. Unga qarama-qarshi bo‘lgan sotsiogenetik nazariya shaxsdagi o‘zgarishlarni jamiyat strukturasi, ijtimoiylashuv usullari va atrofdagilar bilan munosabat vositalari orqali izohlaydi [1, 33-b.].

Sotsiogenetik qarashga ko‘ra, odam «ijtimoiy muhitning nusxasi»dir; biroq bu yondashuv, xuddi biogenetik nazariya kabi, shaxsning o‘z faolligini inkor etib, uni muhitga passiv moslashuvchi mavjudot sifatida talqin qiladi. Shu sababli zamonaviy psixologiyada biologik va ijtimoiy omillarni kamsitmagan holda psixik jarayonlar rivojini birinchi o‘ringa qo‘yuvchi psixogenetik yondashuv muhim o‘rin tutadi. L.S. Vigotskiy elementar psixik funksiyalar (sezish, his qilish) ko‘proq irsiyatga, yuqori funksiyalar (ixtiyoriy xotira, mantiqiy tafakkur, nutq) esa hayot tarziga bog‘liq ekanini ko‘rsatgan [1, 35-b.].

B.N. Sirliyev va hammualliflari shaxsni o‘rganishning biologik, sotsiologik, individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlarini ajratib, ijtimoiy-psixologik yondashuv shaxsni ijtimoiylashuvning bevosita mahsuli sifatida, uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirida o‘rganishini ta’kidlaydi. K.K. Platonov ajratgan shaxs tuzilishidagi to‘rt jabhadan ikkitasi — yo‘nalganlik (mayllar, qiziqishlar,

ideallar, e’tiqod, dunyoqarash) va individual ijtimoiy tajriba (bilim, malaka, ko‘nikma) — bevosita ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, tarbiya va ta’lim jarayonida shakllanadi [3, 223-b.].

O‘rta Osiyo mutafakkirlari ham muhitning shaxsga ta’siri haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Farididdin Attor insonni dunyo «qozoni»da birga qaynayotgan zarra sifatida tasvirlab, uning muhitdan ajralgan holda mavjud bo‘lolmasligini ifodalagan, Abdulla Avloniy esa bola tarbiyasida oila va maktab muhitining hal qiluvchi rolini alohida ta’kidlagan [1, 35–36-b.].

Shaxsning hayot yo‘lini belgilashi va jamiyatdagi maqomini o‘rganishda uni o‘rab turgan makro- va mikroijtimoiy borliq ta’sirini tahlil qilish muhimdir. Makromuhit — inson umri o‘tadigan va unga ta’sir etadigan tabiiy hamda ijtimoiy shart-sharoitlar majmui bo‘lib, u dunyoqarash, fikrlash tarzi va qadriyatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Makromuhitning global ta’siri hozirgi ochiq axborot makonida OAV, teleseriallar, reklama, shou-ko‘rsatuvlar va kompyuter o‘yinlari orqali, ayniqsa yoshlarning didi, orzu-havaslari va modaga munosabatida yaqqol ko‘rinadi [3, 224–225-b.].

Hududiy jabhada makromuhit quyidagi omillar orqali ta’sir etadi [3, 225–226-b.]:

- demografik omil — aholi zichligi, tug‘ilish va o‘lim dinamikasi, umr davomiyligi, migratsiya jarayonlari;
- tabiiy-ekologik omil — yashash joyi, iqlim, ekologik vaziyat;
- ilmiy-texnik omil — fan va texnologiyalar, kompyuterlashtirish darajasi; mualliflar texnika bilan doimiy muloqot insoniy munosabatlar qadrining pasayishiga olib kelishi mumkinligidan ogohlantiradi;
- iqtisodiy omil — daromad manbalari, inflyatsiya, ishsizlik va bandlik darajasi; daromad imkoniyatlarining kengayishi shaxsdan yuqori kasbiy qobiliyatni talab qiladi;
- siyosiy-huquqiy omil — davlat tuzilmasi, qonunchilik va inson huquqlarining himoyalanish darajasi; masalan, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan normativ hujjatlar ularning siyosiy faolligini oshirgan;
- ijtimoiy-madaniy omil — xalq ma’naviyati, an’ana va udumlar, madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlari.

Mikromuhit esa umumiy ijtimoiy muhitning shaxs kundalik faoliyatida bevosita muloqotda bo‘ladigan qismidir; undagi munosabatlar hamkorlik va birgalikdagi faoliyat shaklida kechadi, ammo makromuhit ta’sirlarini ham o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, shaxsga ta’sir etuvchi muhit tarkibiga tabiiy (geografik, ekologik), ijtimoiy va oilaviy muhit kiradi; ular orasida jamiyatning inson kamoloti uchun yaratgan imkoniyatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi . Alisher Navoiy, Ulug‘bek, Ibn Sino kabi buyuk shaxslar ham tayyor iste’dod bilan tug‘ilmagan — ulardagi qobiliyat kurtaklari ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiya ta’sirida ro‘yobga chiqqan [3, 584-b.].

Ijtimoiy omillar shaxsga asosan ijtimoiylashuv jarayoni orqali ta’sir qiladi. Ijtimoiylashuv — inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot-faoliyat jarayonida uni faol qo‘llash jarayonidir. Mazkur atamani insonga nisbatan dastlab amerikalik sotsiolog F.G. Giddings qo‘llagan [1, 59-b.]. Ijtimoiylashuv uch

bosqichda kechadi: ijtimoiy tajribani qabul qilish va singdirish; uni o‘z hayoti va faoliyatida qo‘llash; o‘zgalarga uzatish va ularga ta’sir o‘tkaza olish [1, 60-b.].

Ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayondir: bir tomondan jamiyat shaxsga ta’sir etadi, ikkinchi tomondan shaxs o‘z faolligi orqali jamiyatga ta’sir o‘tkazadi [1, 60–61-b.]. Shu bois bir xil muhit va bir xil ta’sirlar turli odamlarda turlicha natija beradi: tashqi ta’sir mexanik o‘zlashtirilmaydi, balki har bir shaxsning ichki dunyosi orqali subyektiv idrok etiladi [2, 23-b.]. Ijtimoiylashuv bilan birga individuallashuv ham ro‘y beradi — shaxs o‘ziga xosligini namoyon etishga intiladi va uning ijtimoiy xulqi takrorlanmas jihatlar kasb etadi [1, 62–63-b.].

Ijtimoiylashuvga ta’sir etuvchi omillar sifatida biologik va madaniy kontekst ajratiladi. Madaniy kontekstga ko‘ra, har bir jamiyat muayyan shaxs sifatlarini qadrlaydi va ijtimoiylashuv usullari ana shu qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi [1, 61–62-b.]. Ijtimoiylashuv mexanizmlari qatoriga adaptatsiya, identifikatsiya, taqlid va ishontirish kiradi [1, 63–64-b.].

Ijtimoiylashuv sodir bo‘ladigan sharoitlar ijtimoiy institutlar deb ataladi [2, 23-b.]. Ular birlamchi (oila, mahalla, ta’lim-tarbiya muassasalari) va ikkilamchi (mehnat jamoalari, OAV, jamoat tashkilotlari, din) maskanlarga ajratiladi [1, 65-b.].

Oila — shaxs uchun dastlabki ijtimoiylashuv o‘chog‘i. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» maqoli bejiz aytilmagan: bola oilada o‘zlashtirgan tajribasidan butun hayoti davomida foydalanadi va uni farzandlariga ham uzatadi [1, 66-b.]. Ota-onalar o‘rtasidagi munosabat xarakteri, oiladagi uyg‘unlik yoki nouyg‘unlik darajasi, aka-uka va opa-singillar munosabatlari bolaning xulq-atvoriga, jumladan, agressiv xulq shakllanishiga ta’sir etuvchi omillardir [1, 66-b.]. A. Antonovga ko‘ra, oila qanchalik inoq va mustahkam bo‘lsa, uning me’yoriy ta’siri shunchalik samarali bo‘ladi; bunday oilada tarbiyalangan farzand turli zararli da’vatlarga berilmaydigan, mustaqil fikrli inson bo‘lib yetishadi [1, 67-b.]. V.M. Karimova ham ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o‘chog‘i oila ekanini, ota-ona bola ongiga ilk ijtimoiy ko‘nikmalarni singdiruvchi va irodasini charxlovchi shaxslar ekanini asoslagan [1, 68-b.].

Mahalla — o‘zbek jamiyatida oila bilan bir qatorda muhim tarbiyalovchi va ijtimoiylashtiruvchi institut. Har bir mahallada shakllangan o‘ziga xos me’yorlar tizimi (masalan, tongda ko‘cha-eshiklarni supurish udumi) shu yerda ulg‘ayayotgan yoshlarning ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1, 71-b.; 2, 23–24-b.].

Ta’lim muassasalari. Maktabda ijtimoiylashuv ikki yo‘nalishda kechadi: o‘quv fanlari orqali olingan bilimlar va o‘qituvchining xulq-atvori, muloqot madaniyati, o‘z hissiyotlarini boshqara olishi orqali [1, 72-b.]. O‘quvchilarning kutishlariga javob bergan o‘qituvchi tan olinadi, aks holda uning ta’siri salbiy rezonans beradi [2, 24-b.]. Oliy ta’limda esa talabalar guruhining psixologik iqlimi va guruh me’yorlari ijtimoiylashuvning asosiy omillaridan biriga aylanadi [1, 73-b.].

Mehnat jamoasi. Shaxs bu muhitga ma’lum tajriba bilan keladi, biroq kimlar bilan va qanday munosabatlar muhitida ishlashi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezoni bo‘lib qoladi. Ishga kirishda ko‘pincha jamoa va rahbarning qandayligi maosh masalasidan oldin o‘rganiladi [1, 73-b.; 2, 24-b.].

OAV, din va jamoat tashkilotlari. OAV orqali uzatilayotgan ma’lumotlar kishilar ongiga tez va kuchli ta’sir ko‘rsatadi; dinning ijobiy jihatlari bolaning insonparvar, vijdonli bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi; jamoat tashkilotlarining yuksak talablari esa shaxsda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat’iyatlilik va mas’uliyat kabi fazilatlarni barqarorlashtiradi [1, 74-b.]. Bundan tashqari, davlatning yoshlar siyosati, ta’lim standartlari, bozor munosabatlari ham ijtimoiylashuv mazmunini belgilaydi [1, 74-b.].

G.M. Andreyeva shaxs shakllanishi uch sohada — faoliyat, muloqot va o‘z-o‘zini anglash sohalarida — amalga oshishini ko‘rsatgan [1, 75-b.]. Faoliyat sohasining kengayishi shaxsdan yangi bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi va bu yo‘ldagi faollik unda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar majmuini shakllantiradi; muloqot tizimlari faol hayotiy mavqeni yuzaga keltiradi; «Men» obrazining rivojlanishi esa o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilish qobiliyatini kamol toptiradi [2, 25-b.].

Ijtimoiy me’yorlar, sanksiyalar va rollar shaxs xulq-atvorini boshqarib, muvofiqlashtirib turuvchi ijtimoiy mexanizmlardir [2, 21-b.]. Ijtimoiy me’yor — jamiyat o‘z a’zolari xulqiga nisbatan ishlab chiqqan va ko‘pchilik e’tirof etgan talablar bo‘lib, ular alohida shaxs tomonidan emas, ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi (masalan, xonaga kirganda salom berish, jamoat transportida kattalarga joy bo‘shatish) [2, 21-b.]. Ijtimoiy sanksiyalar — me’yorlarga rioya qilinishini nazorat qiluvchi jazo va rag‘bat mexanizmlari; ular tufayli shaxs jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanmaslikka harakat qiladi [2, 21-b.].

Ijtimoiy rol esa shaxsning muayyan vaziyatdagi huquq va burchlaridan iborat harakatlar majmuidir. Shaxs bir vaqtda talaba, farzand, xodim kabi ko‘plab rollarni bajaradi; rollarning ko‘pligi ba’zan rollar ziddiyatini va ichki ruhiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin [2, 21–22-b.]. Rollar nazariyasiga ko‘ra, jamiyat har bir a’zosi uchun maqom bilan bog‘liq barqaror xulq usullarini belgilaydi va inson aynan shu rollarni bajarish orqali qanday shaxs ekanini namoyon etadi [1, 33-b.].

Ijtimoiy omillarning shaxs faolligiga ta’siri pirovardida uning motivatsiyasi orqali amalga oshadi. Motivatsiya — inson xulq-atvori, uning yo‘nalishi va faolligini tushuntiruvchi psixologik sabablar majmuidir; xulq sabablari ichki (ehtiyoj, motiv, maqsad, qiziqish) va tashqi (faoliyatning shart-sharoitlari, stimullar) sabablarga ajratiladi [2, 32-b.]. Har qanday motiv ortida ehtiyoj turadi. R.S. Nemov ehtiyojlarni biologik va ijtimoiy turlarga ajratadi, biroq har qanday ehtiyoj, hatto ovqatlanish kabi tabiiy ehtiyoj ham jamiyatdagi qadriyatlar, madaniy me’yorlar va oila muhiti ta’sirida «ijtimoiylashgan» bo‘ladi [2, 33-b.].

D. Makklelland, D. Atkinson va X. Xekxauzen tadqiqotlarida faoliyatning ikki asosiy motivi — muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari ajratilgan. Muvaffaqiyatga yo‘nalgan shaxslar ishga ishonch bilan kirishadi, o‘ziga yuqori talab qo‘yadi; muvaffaqiyatsizlikdan qochishga yo‘nalganlarda esa ishonchsizlik va pessimizm ustun bo‘ladi [2, 34-b.]. Bu motivlar ham shaxsning ijtimoiy tajribasi, o‘ziga va atrofdagilarga munosabati asosida shakllanadi.

Anglanmagan ijtimoiy xulq motivlari ijtimoiy ustanovka (attityud) orqali tushuntiriladi. Ijtimoiy ustanovka — shaxsning ijtimoiy obyektlar, guruhlar va

hodisalarni muayyan tarzda idrok etish, baholash va ularga munosabat bildirishga ichki tayyorgarlik holati bo‘lib, u ijtimoiy tajriba davomida shakllanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanadi [2, 19-b.; 2, 35-b.]. V.A. Yadovning dispozitsion konsepsiyasida ustanovkalar to‘rt darajada — elementar ustanovkalar, ijtimoiy ustanovkalar (attityudlar), bazaviy ijtimoiy ustanovkalar va qadriyatlar tizimi sifatida tasavvur qilinadi [2, 19-b.]. Ustanovkalarni o‘zgartirish uchun ularning sababi bo‘lgan vaziyat yoki faoliyat maqsadi va motivini o‘zgartirish shart; bu esa shaxsning faol ongli faoliyatida ro‘y beradi [2, 26-b.].

Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo‘naltirib turuvchi barqaror motivlar majmui — yo‘nalganlik shakllanadi. Uning tarkibiy qismlari mas’uliyat, maqsad va ideallar, qiziqishlar, e’tiqod va dunyoqarash hamda ustanovkalardan iborat [3, 584–586-b.]. Aynan yo‘nalganlik ijtimoiy omillar ta’sirini shaxsning barqaror faolligiga aylantiruvchi ichki bo‘g‘in hisoblanadi.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlil quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

– Shaxs faolligi ijtimoiy tabiatga ega: u individual ehtiyojlardan kelib chiqqandek ko‘rinsa-da, shaxsning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari mahsulidir.

– Shaxs shakllanishini faqat biologik yoki faqat ijtimoiy omillar bilan izohlash bir tomonlamadir; ijtimoiy omillar shaxsning ichki dunyosi, ehtiyojlari va o‘z-o‘zini anglashi orqali sinib o‘tadi.

– Shaxsga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni makromuhit (demografik, ekologik, ilmiy-texnik, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-madaniy omillar, global axborot makoni) va mikromuhit (oila, mahalla, sinf va talabalar guruhi, mehnat jamoasi) darajalarida tizimlashtirish maqsadga muvofiq.

– O‘zbek jamiyatida oila va mahalla birlamchi ijtimoiylashuv institutlari sifatida shaxs faolligining dastlabki «qolipi»ni yaratadi; ta’lim muassasalari, mehnat jamoasi, jamoat tashkilotlari va OAV uni sayqallaydi.

– Ijtimoiy me’yor, sanksiya va rollar shaxs xulqini tashqaridan tartibga solsa, motivatsiya, ijtimoiy ustanovkalar va yo‘nalganlik ijtimoiy ta’sirlarni shaxsning ichki, barqaror faolligiga aylantiradi.

Amaliy jihatdan, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun oila, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligini kuchaytirish, bolalarda nafaqat bilim, balki iroda, mas’uliyat va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Zero, ijtimoiy tarbiyaning asl vazifasi boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdir [1, 74-b.].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 168 b. ISBN 978-9943-391-68-0.

2. Kamalova S.R. «Ijtimoiy psixologiya» fani bo‘yicha ma’ruzalar matni. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015. – 36 b. [Elektron manba: uzsmart.uz].

3. Sirliyev B.N., Dushanov R.X., Kalonov I.X. Ijtimoiy psixologiya: ma’ruzalar kursi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 633 b.